



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Jinoyat va jazo"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Jinoyat tushunchasi

Jinoyat — bu shaxsning boshqa shaxs, jamiyat yoki davlatning huquq va manfaatlariga **jiddiy zarar yetkazuvchi**, qonunda taqiqlangan xatti-harakatidir. Jinoyatlar **Jinoyat Kodeksi** bilan tartibga solinadi va ular uchun jazo belgilanadi.

Jinoyatning asosiy xususiyati shundaki, u **ijtimoiy xavfli**, ya'ni jamiyatning tinchligi va xavfsizligiga tahdid soladi.

Jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqi

Har qanday huquqbuzarlik jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat quyidagi sabablar bilan ajralib turadi:

- Zarar darajasi juda yuqori va jiddiy
- Harakat maxsus qonun — Jinoyat Kodeksida taqiqlangan
- Buning uchun belgilangan **jazo** mavjud
- Davlat tomonidan sudda ko'rib chiqiladi



Jinoyatning asosiy belgilari

Huquq ilmidagi jinoyat sifatida tan olinishi uchun xatti-harakat **to'rtta asosiy belgiga** ega bo'lishi shart. Ulardan biri ham bo'lmasa, jinoyat tarkibi to'liq emas deb hisoblanadi.

Huquqqa zidlik

Xatti-harakat qonunga to'liq zid bo'lishi kerak. Ya'ni, amalga oshirilgan harakat Jinoyat Kodeksining muayyan moddasi bilan taqiqlangan bo'lishi shart. Qonunda taqiqlanmagan harakat jinoyat hisoblanmaydi.

Ijtimoiy xavflilik

Harakat shaxs yoki jamiyat manfaatiga real zarar yetkazadi yoki zarar yetkazish xavfi mavjud bo'ladi. Jamiyatning xavfsizligi, osoyishtaligi va huquqiy tartibi buzilishi mumkin.

Ayblilik

Jinoyat sodir etgan shaxs o'z harakatining zararli ekanini bilgan va tushungan holda uni amalga oshirgan bo'lishi kerak. Aybsiz harakat jinoyat sifatida baholanmaydi.

Jazoga loyqlik

Jinoyat sodir etilgani uchun qonunda belgilangan jazo qo'llanilishi lozim. Jazosiz harakat jinoyat emas — qonun aybdorni javobgarlikka tortishni ko'zda tutishi shart.



Eslatma: To'rtta belgi birgalikda mavjud bo'lsagina harakat jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Ulardan biri etishmasa — jinoyat tarkibi to'liq emas.


Ayb tushunchasi va uning ahamiyati

Ayb nima?

Ayb — bu shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga bo'lgan **ongli (ruhiy) munosabatidir**. Oddiy qilib aytganda: shaxs qilayotgan ishining yomon oqibatga olib kelishini tushunadimi yoki yo'qmi, va shunga qaramay uni qiladimi — mana shu ayb hisoblanadi. Ayb jinoyat huquqining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u **sub'ektiv tomoni** deb ham ataladi. Ya'ni, jinoyat faqat tashqi harakati emas, balki ichki niyat va munosabat bilan ham baholanadi.

Aybning ahamiyati

- Ayb bo'lmasa → jinoyat ham bo'lmaydi
- Hech kim aybsiz holda jazolanmaydi
- Bu — jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri
- Faqat zarar yetgani yetarli emas, shaxsning aybi ham bo'lishi shart
- Sud jarayon davomida aybni aniqlaydi va isbotlaydi



Yuqoridagi uch bosqich — bilish, oqibatni oldindan ko'rish va shunga qaramay harakat qilish — ayb tushunchasining mohiyatini tashkil etadi.

Aybning shakllari: Qasddan sodir etilgan jinoyat



Qasddan sodir etilgan jinoyat eng og'ir shakl hisoblanadi. Bunda shaxs o'z harakatining xavfli ekanligini biladi, zararli oqibatlar kelishini oldindan ko'radi va shu oqibatlarni xohlaydi yoki ongli ravishda yo'l qo'yadi.

◆ To'g'ri qasd

Shaxs natijani oldindan biladi **va aynan shu natijani xohlaydi**. Niyat aniq va maqsadli.
Misol: Bir shaxs jamoat joyida boshqa odam bilan janjallashib qoldi va uni ataylab jarohatlashga qaror qildi. U qo'lga tosh olib, jabrlanuvchining bosh qismiga qasddan uloqtirdi. Natijada jabrlanuvchiga tan jarohati yetkazildi. Mazkur holatda shaxs o'z harakatining xavfli ekanini oldindan bilgan, zararli oqibat yuz berishini **istagan** va aynan shu natijaga erishish maqsadida harakat qilgan.

◆ Egri qasd

Shaxs zarar bo'lishini biladi, lekin bu natijani xohlamaydi, **ammo unga beparvo qaraydi** — "baribir bo'lsa bo'ldi" deb o'ylaydi.
Misol: Bir shaxs jamoat joyida boshqa shaxsni qo'rqitish maqsadida osmonga qarata tosh uloqtirdi. U tosh kimningdir boshiga tegishi mumkinligini tushundi, biroq "tegib ketsa ham mayli" degan beparvo munosabat bilan harakat qildi. Natijada tosh yaqin atrofdagi fuqaroning boshiga tegib, unga tan jarohati yetkazildi.

Aybning shakllari: Ehtiyotsizlik

Ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlarda shaxs zarar yetkazishni **istamaydi**, lekin o'zining beparvoligi yoki o'ylamasdan harakat qilgani sababli zarar kelib chiqadi. Bu ham jinoyat deb hisoblanadi.

◆ O'z-o'ziga ishonish (Beparvolik)

Shaxs xavfli oqibatni **oldindan ko'radi**, lekin "menda hech narsa bo'lmaydi" deb o'ylaydi va ortiqcha o'z-o'ziga ishonadi.

Misol: Haydovchi katta tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa-da, "men tajribali haydovchiman, mashinani bemalol boshqara olaman" deb o'ylab, tezlikni kamaytirmadi. U yo'lda xavfli vaziyat yuzaga kelishi mumkinligini tushungan, ammo salbiy oqibat bo'lmaydi deb ishonib harakat qilgan. Natijada piyodani urib yuborgan. Haydovchi oqibatni bilgan, lekin o'ziga haddan tashqari ishonib, zarurat bo'lmasligiga ishongan.

◆ Loqaydlik (E'tiborsizlik)

Shaxs xavfni **oldindan ko'rmaydi**, lekin aslida ko'rishi va ehtiyot bo'lishi kerak edi. Bu beparvolik va e'tiborsizlikdan kelib chiqadi.

Misol: Haydovchi avtomobil boshqarayotganda telefon orqali yozishma bilan chalg'ib ketdi. U yo'l harakati qoidalariga ko'ra diqqatli bo'lishi kerakligini bilgan bo'lsa-da, ehtiyotsizlik bilan harakat qildi va piyodani kech payqab qoldi. Natijada piyodaga tan jarohati yetkazildi. Haydovchi zararli oqibat yuz berishini istamagan, biroq zarur ehtiyot choralariga rioya qilmagan.



Ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyat qasddan sodir etilgan jinoyatga nisbatan odatda **engilroq jazo** bilan ta'qib qilinadi, chunki niyat bo'lmaydi. Biroq bu harakatni jinoyat sifatida baholashdan ozod qilmaydi.

Jinoyatni istisno qiladigan holatlar

Ba'zi vaziyatlarda shaxs zarar yetkazsa ham, bu jinoyat hisoblanmaydi, chunki u majburiy yoki zarur holatda harakat qilgan bo'ladi. Qonun bunday holatlarni aniq belgilaydi.



Zaruriy mudofaa

Shaxs o'zini, boshqalarni yoki jamiyatni noqonuniy hujumdan himoya qiladi. Himoya hujumga mos bo'lishi va ortiqcha zarar yetkazilmasligi kerak.



Oxirgi zarurat

Katta zarar oldini olish uchun kichik zarar yetkaziladi. Boshqa yo'l bo'lmasligi va yetkazilgan zarar kichikroq bo'lishi shart.



Jismoniy/Ruhiy majburiylik

Shaxs kuch yoki tahdid ostida majburan harakat qiladi. Jismoniy — kuch bilan, ruhiy — qo'rqitish va tahdid orqali.



Asosli tavakkalchilik

Foydali natijaga erishish uchun o'ylangan xavf qilinadi. Maqsad foydali, xavf asosli va xavfsizlik choralariga rioya qilingan bo'lishi shart.



Buyruq yoki topshiriqni bajarish

Shaxs qonuniy buyruqni bajaradi. Muhim: agar buyruq noqonuniy bo'lsa — uni bajargan ham javobgar bo'ladi.

⚠ Muhim eslatma: Agar yuqoridagi holatlar chegaradan chiqib ketsa (masalan, ortiqcha kuch ishlatilsa), unda bu holat yana jinoyat deb baholanishi mumkin.

Jinoyat sodir etish va uning oqibatlari

Jinoyat sodir etishning oqibatlari

- Jinoyat sodir etgan shaxsga **jazo qo'llanadi** (jarima, ozodlikdan mahrum qilish, ma'muriy yoki boshqa choralar)
- Jabrlanuvchilarga **moddiy va ma'naviy zarar** yetkazilishi mumkin
- Jamiyat xavfsizligi va tinchligi buziladi
- Jinoyat qayta sodir etilishi ehtimoli mavjud
- Aybdorning ijtimoiy obro'si va kelajagi xavf ostida qoladi

42-modda. Jazo tushunchasi

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan **davlat nomidan sud hukmi bilan** qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo qo'llanilishining maqsadlari:

- **Axloqan tuzatish** — shaxsni to'g'ri yo'lga qaytarish
- **Jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish** — u yana jinoyat qilmasligi uchun sharoit yaratish (masalan, qamoq)
- **Boshqa shaxslarni ogohlantirish** — jamiyat uchun profilaktik ta'sir ko'rsatish

Jazo shaxsiy qasos emas — bu davlatning qonuniy va rasmiy chorasidir. Faqat **sud** jazo tayinlashga vakolatli.

43-modda: Jazo tizimi

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy **jazo turlari** qo'llanilishi mumkin. Ular og'irlik darajasiga ko'ra tartiblanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish

Shaxs umrining oxirigacha ozodlikdan mahrum qilinadi — eng og'ir jazo

Ozodlikdan mahrum qilish

Shaxs qamoqqa olinadi — belgilangan muddat davomida

Ozodlikni cheklash

Shaxs erkin harakatlana olmaydi, lekin qamoqqa olinmaydi

Axloq tuzatish ishlari / Majburiy jamoat ishlari

Shaxs ishlaydi, lekin daromadining bir qismi ushlab qolinadi yoki majburiy mehnat qiladi

Muayyan huquqdan mahrum qilish / Jarima

Pul jarimasi yoki ma'lum huquqlardan (transport, kasb) mahrum qilish — yengil jazo



Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari **qo'shimcha jazo** ham qo'llanilishi mumkin — masalan, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish. Xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish **faqat harbiy xizmatchilarga** nisbatan qo'llaniladi.

Odam savdosi tushunchasi

Odam savdosi — bu shaxslarni **aldash, zo'rlik ishlatish, tahdid qilish, majbur qilish** yoki ularning nochor holatidan foydalanish orqali yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish bilan bog'liq og'ir jinoyatdir. Odatda bu harakatlardan maqsad insonlarni **ekspluatatsiya qilish**, ya'ni ulardan noqonuniy foyda olish hisoblanadi.

Odam savdosining ko'rinishlari

- Majburiy mehnatga jalb qilish
- Jinsiy ekspluatatsiya
- Qullik yoki qullikka o'xshash munosabatlarda ushlab turish
- Tilanchilikka majburlash
- Noqonuniy organ transplantatsiyasi maqsadida foydalanish

Jinoyatchilarnng usullari

Ko'pincha jinoyatchilar jabrlanuvchilarga **yaxshi ish, yuqori daromad yoki chet elda qulay sharoit** va'da qiladi. Keyinchalik esa ularning hujjatlarini olib qo'yib, erkinligini cheklaydi va majburan ishlatadi.

Nima uchun bu eng og'ir jinoyatlardan biri?

Odam savdosi insonning **erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatiga** qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanadi. Bu jinoyat jabrlanuvchilarning jismoniy va ruhiy holatiga jiddiy zarar yetkazadi hamda ularning normal hayot kechirish imkoniyatini cheklaydi.

Kimlar kurashadi?

- Davlat organlari
- Xalqaro tashkilotlar (Interpol, BMT)
- Fuqarolik jamiyati institutlari
- Maxsus bo'linmalar va prokuratura

⊗ Ushbu jinoyat uchun qonunchilikda **qat'iy javobgarlik** belgilangan.

Odam o'g'irlash, tuhmat va haqorat



Odam o'g'irlash

Bu shaxsni uning xohishiga qarshi ravishda **yashirincha, aldov, zo'rlik yoki tahdid orqali** olib ketish va erkin harakatlanish imkoniyatidan mahrum qilish bilan bog'liq jinoyatdir. Maqsadlar: pul talab qilish, qasos olish, bosim o'tkazish yoki boshqa jinoyatni yashirish. Insonning erkinligi, xavfsizligi va shaxsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi og'ir jinoyat.



Tuhmat

Bu boshqa shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini yoki obro'siga putur yetkazadigan **yolg'on ma'lumotlarni bila turib tarqatishdir**. Og'zaki, yozma, internet yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilishi mumkin. Ma'lumot tarqatayotgan shaxs uning yolg'on ekanini biladi, biroq baribir tarqatadi. Natijada jabrlanuvchining obro'siga zarar yetadi.



Haqorat qilish

Bu boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini **qasddan kamsitish**, uni uyatli yoki haqoratomuz shaklda tahqirlashdir. Shakllari: qo'pol so'zlar, mazax qilish, obro'ni kamsitish, internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda haqoratomuz yozuvlar. Jamiyatdagi odob-axloq va o'zaro hurmat tamoyillariga ziddir.

Zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish

O'zbekiston Respublikasida zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish — inson hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati hamda shaxsiy daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan **muhim faoliyat** hisoblanadi.

1

Shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash

Jabrlanuvchini himoya qilish, unga nisbatan bosim yoki tahdid davom etishining oldini olish, xavfli vaziyatdan chiqarish va zarur hollarda himoya choralarini qo'llash

2

Tezkor huquqiy choralar

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar voqeani o'rganadi, dalillarni to'playdi, guvohlarning ko'rsatmalarini oladi va aybdor shaxslarning harakatlariga huquqiy baho beradi

3

Jabrlanuvchilarga yordam

Tibbiy yordam, psixologik ko'mak, huquqiy maslahat va zarur hollarda moddiy yordam ko'rsatilishi. Ruhiy bosim ostidagi shaxslar bilan mutaxassislar ishlashi zarur

4

Ta'lim va targ'ibot

Maktablar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalar va jamoat tashkilotlarida inson huquqlari, qonuniy javobgarlik va o'zaro hurmat bo'yicha tushuntirish ishlari

✔ Jamiyatda huquqiy madaniyat oshgan sari fuqarolar zo'rvonlikka befarq bo'lmaydi, jabrlanuvchilar o'z huquqlarini himoya qilishga jur'at topadi va atrofdagilar tegishli organlarga xabar beradi.

Keys-savollar: Amaliy tahlil

Quyidagi real hayotiy vaziyatlar asosida huquqiy bilimlaringizni mustahkamlang.
Har bir keys bo'yicha savollarni muhokama qiling.

Keys 1 — Jinoyat tushunchasi

Tungi vaqtda 18 yoshli shaxslar avto-turar joylarda transport vositalariga ataylab zarar yetkazdi. Ular buni "ko'ngilxushlik" deb baholadi.

Savollar:

1. Qanday huquqiy elementlar mavjud?
2. Ijtimoiy xavflilik nimada?
3. Nima uchun bu oddiy huquqbuzarlik emas?

Keys 2 — Jinoyat belgilari

18 yoshli o'quvchi yo'qotilgan telefonni topib, egasiga qaytarmasdan o'zi ishlatdi.

Savollar:

1. Jinoyatning obyektiv tomoni nimada?
2. Huquqqa zidlik qaysi harakat orqali namoyon bo'lmoqda?
3. Topilgan mulkni o'zlashtirish nima uchun jinoyat?

Keys 3 — Ayb shakllari

18 yoshli haydovchi tezlikni oshirib, yo'l sharoitini noto'g'ri baholab piyodaga zarar yetkazdi. Jabrlanuvchiga zarar yetkazishni oldindan rejalashtirilmagan.

Savollar:

1. Qaysi ayb shakli mavjud?
2. Qasddan va ehtiyotsizlik bilan sodir etilganini qanday farqlash mumkin?

Keys 4 — Jinoyat oqibatlari

18 yoshli shaxs internet orqali bank kartalaridan pul yechib oldi. Keyinchalik jinoyat fosh etildi, sudlanganlik yuzaga keldi va kelajagi xavf ostida qoldi.

Savollar:

1. Qisqa va uzoq muddatli oqibatlar farqi nimada?
2. Sudlanganlik huquqiy maqomga qanday ta'sir qiladi?

Keys-savollar: Amaliy tahlil

Keys 5 — Odam savdosi

Ijtimoiy tarmoqlarda chet elda yuqori maoshli ish va'da qilindi. Ishonib borgan yoshlar hujjatlari olib qo'yilib, erkinlikdan mahrum etildi.

Savollar:

1. Qaysi belgilar bu jinoyatni aniqlaydi?
2. Nima uchun bu og'ir jinoyat toifasiga kiradi?
3. Jabrlanuvchilar huquqlari qanday buzilgan?

Keys 6 — Tuhmat va haqorat

Ijtimoiy tarmoqlarda fuqaro haqida asossiz yolg'on ma'lumotlar tarqatildi. Jabrlanuvchi atrofdagilar oldida salbiy baholandi, munosabatlari buzildi va ruhiy bosim ostida qoldi.

Savollar:

1. Tuhmat va haqoratning huquqiy farqi nimada?
2. Axborot tarqatish erkinligi qachon huquqbuzarlikka aylanadi?

Keys 7 — Zo'ravonlikka qarshi kurash

Bir guruh yoshlar tengdoshiga uzoq vaqt davomida haqorat, qo'rqitish va jismoniy tazyiq orqali zo'ravonlik qildi. Vaziyat maktabda, jamoat joylarida va ijtimoiy tarmoqlarda davom etdi.

Savollar:

1. Zo'ravonlikning qaysi shakllari mavjud?
2. Atrofdagilarning harakatsizligi qanday baholanadi?